


NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2023- YIL YANVAR-SENTABR (DASTLABKI MA'LUMOT)




**Tel.: 69-211-72-00
www.namstat.uz**


Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

2023-yil yanvar-sentabr oylarida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 14 848,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 107,0 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 82,4 % ni tashkil etdi.




2023- yil yanvar-sentabr oylarida

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoati 123,1 % ga o'sishi hisoblanadi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 148,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat


2023- yil yanvar-sentabr oylarida



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12 227,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,4 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,4 % ni (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 1,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,1 % (8,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 16,6 % (12,6 %) va quyi texnologiyalisi – 73,9 % (77,4 %) ni tashkil etdi.





2023- yil yanvar-sentabr oylarida

Jami sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 38,3 % (2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 18,6 % (2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,2 %), elektr uskunolari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 3,1 % (2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 118,9 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,1 % (2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 127,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 5,7 % (2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,9 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



2023- yil yanvar-sentabr oylarida



2023-yilning yanvar-sentabr oylari davomida jami sanoatda 34,3 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 61,4 % ga kamaygan), 14,0 ming tonna paxta tolasi (4,8 % kamaygan), 16,6 ming tonna omuxta yem mahsulotlari (62,0 % ga kamaygan) hamda 24,8 ming tonna paxta chigiti (4,2 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Omuxta yem, ming tonna	43,7	16,6	-27,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	88,9	34,3	-54,6
Paxta tolasi, ming tonna	14,7	14,0	-0,7
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	9,1	6,5	-2,6

2023- yil yanvar-sentabr oylarida

Metallurgiya sanoati

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida jami sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 97,8 % bo'lgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,5 % ga teng bo'lib, fizik hajm indeksi esa, 28,6 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 81,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 447,1 mlrd so'mni yoki jami sanoat hajmining 3,5 % ni tashkil etgan, 2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 812,4 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2 180,1 mlrd so'mni, joriy 2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2 198,9 mlrd so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 18,8 mlrd so'mga ortgan.



Ichimliklar ishlab chiqarish


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 433,9 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 561,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 127,5 mlrd. so'mga ko'paygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish


2022-yilning yanvar-sentabr oylarida jami sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 93,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 106,1 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 823,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 9,7 % ni, ya'ni jami 1232,5 mlrd so'mni tashkil etgan, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 11,4 % ni tashkil etib, 1 698,2 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2022-yilning mos davriga nisbatan 465,7 mlrd. so'mga oshgan.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 469,3 mlrd. so'mni, jami sanoatdagi ulushi 3,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha 457,0 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, tashkil etdi.

2022-yil

167,2 %

2023-yil

94,3 %

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 9,5 mlrd. so'mni tashkil etib jami sanoatining 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 0,6 mlrd. so'mga ko'payib, 10,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yil

102,3 %

2023-yil

82,5 %

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,7 % ni, yani 209,8 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 181,1 mlrd. so'mga ko'paygan va 390,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yil

106,6 %

2023-yil


129,8 %

2023- yil yanvar-sentabr oylarida

Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2023-yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 412,5 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 16,2 % ini) tashkil etadi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 73,3 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	4 769,6	5 044,3	274,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	49,9	44,0	-5,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 148,8 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar - mlrd so'm	70,4	85,0	14,6
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	16,1	24,6	8,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 14,6 mlrd. so'm yoki 20,7 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'rnalarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 8,5 mlrd. so'mga ko'payganligi kuzatildi.


Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6 388,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish 106,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 43,0 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari




Nooziq-ovqat mahsulotlar





Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 46,3 % ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 11,1 % Kosonsoy tumani 9,8 % ni, Chust tumani 7,5 % ni, Chortoq tumani 4,9 % ni, Uychi tumani 4,8 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 2 958,7 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 46,3 %, To'raqo'rg'on tumanida 711,1 mlrd so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 11,1 %ni , shuningdek Kosonsoy tumanida 626,4 mlrd. so'm bo'lib, 9,8 % ni tashkil etdi.



yanvar-sentabr
mlrd.so'm




Jami sanoat ishlab chiqarishi
hajmida iste'mol mahsulot-
larining ulushi





Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 51,3 % shuningdek, Chortoq tumani 11,0 %, Uychi tumani 6,8 % ni tashkil etadi.




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

37,2 %



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 43,5 % ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 16,5 % ni, Kosonsoy tumani esa 14,1 % ni tashkil etdi.




Namangan viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 38,9 %ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 19,4 % ni, Chust tumani 10,1 %ni, Uychi tumani 5,3 % tashkil etdi.

Namangan viloyati



yanvar-sentabr o'sish sur'ati



Namangan sh.



Mingbuloq



Kosonsoy



Namangan



Norin



Pop



To'raqo'rg'on



Uychi



Uchqo'rg'on



Chortoq



Chust



Yangiqo'rg'on




mlrd. so'mda

FHI, % da

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (11 911,5 ming so'm), Namangan shahrida (8 422,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Namangan viloyati



o'sish sur'ati
ming. so'm

Namangan viloyati

2022- yil

4 301,9 ming. so'm

2023- yil

4 911,4 ming. so'm



yanvar-sentabr o'sish sur'ati

2022- yil

106,8 %


2023- yil

104,6 %


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 7 064,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 47,6 % ni tashkil etdi.

Namangan viloyati



yanvar-sentabr ulushi % da.




Namangan sh.		58,5
		3 377,4
Mingbuloq		37,0
		241,9
Kosonsoy		43,7
		341,4
Namangan		74,5
		485,4
Norin		90,8
		188,2
Pop		72,4
		287,2
To'raqo'rg'on		9,8
		282,8
Uychi		68,2
		539,9
Uchqo'rg'on		28,3
		189,3
Chortoq		100,0
		357,9
Chust		39,2
		590,5
Yangiqo'rg'on		100,0
		182,7

●●●●●●●● **jamidagi ulushi**
●●●●●●●● **mlrd. so'm**

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Namangan viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 113,0 ming so'm bo'lgani holda, Namangan shahrida – 4 318,0 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 2 942,9 ming so'mni, Kosonsoy tumanida 2 788,7 ming so'mni tashkil etdi.



Namangan viloyati



yanvar-sentabr o'sish sur'ati



Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 5 084 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 832 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 36,0 % i) Namangan shahriga, 406 tasi (8,0 %) Namangan tumaniga, 399 tasi (7,8 %) Chust tumaniga, 396 tasi (7,8 %) Kosonsoy tumaniga, 369 tasi (7,3 %) To'raqo'rg'on tumaniga, 345 tasi (6,8 %) Uychi tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan



2022- yil yanvar-sentabr



2023- yil yanvar-sentabr



Jami faoliyat yuritayotgan



2022- yil yanvar-sentabr



2023- yil yanvar-sentabr

Namangan sh.		169
		1832
Mingbuloq		41
		132
Kosonsoy		51
		396
Namangan		63
		406
Norin		44
		239
Pop		60
		261
To'raqo'rg'on		70
		369
Uychi		48
		345
Uchqo'rg'on		52
		282
Chortoq		21
		200
Chust		45
		399
Yangiqo'rg'on		29
		223

yangi tashkil etilgan



faoliyat yuritayotgan



2023- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2 899,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 19,5 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.

2022-yil yanvar-sentabr

2023-yil yanvar-sentabr



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2023- yil yanvar-sentabr)



2023- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 107 ta loyiha bo'yicha 1467,5 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 9,1 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 620 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 45,7 % ga kamayganligi kuzatildi.